

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAQUBOV SAN'AT SHONAZAROVICH

**MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH
(Xorazm viloyati misolida)**

08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Yaqubov San'at Shonazarovich. Mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish (Xorazm viloyati misolida).....3

Якубов Санъат Шоназарович. Эффективное использование экспортного потенциала в устойчивом развитии региона (на примере Хорезмской области).....29

Yakubov Sanat Shonazarovich. Effective utilization of export potential in the sustainable development of a region.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAQUBOV SAN'AT SHONAZAROVICH

**MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH
(Xorazm viloyati misolida)**

08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Iqt6629 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xamrayev Quvvat Iskandarovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Mullabayev Baxtiyorjon Bulturbayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sapayev Maxsudbek Karimovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____:_____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi bevosita ularning eksport salohiyatidan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Jahon bo‘yicha tovarlar eksporti qiymati 2023-yilda 24,9 trln. AQSh dollarini va xizmatlar eksporti esa 7,1 trln. AQSh dollarini tashkil etdi¹. Bu esa global bozorda munosib o‘rin egallash uchun mintaqalarning eksport strategiyasini ilmiy asosda shakllantirish borasida keng ko‘lamli xalqaro bozor imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Shunga muvofiq, o‘ziga xos geografik joylashuvi, resurs salohiyati va madaniy-tarixiy merosga ega mintaqalarning eksport imkoniyatlarini qayta baholash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Jahon mamlakatlari mintaqalarida eksport salohiyatidan samarali foydalanishning turli modellari qo‘llanilmoqda. Germaniyaning “Mittelstand” modeli, Janubiy Koreyaning eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalar tajribasi va Turkiyaning an‘anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish usullari mintaqaviy eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda eksportning mintaqaviy iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini baholash, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatidan foydalanish integral indeksini (ESFII) ishlab chiqish, ARDL-ECM yondashuvlarini qo‘llash orqali eksportning qisqa va uzoq muddatli multiplikatorlarini hisoblash bu boradagi ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mintaqalarning eksport salohiyatidan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida respublikaning eksport hajmlarini 2026-yilga qadar 30 mlrd. AQSh dollariga yetkazish strategik maqsad qilib belgilangan². Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida mintaqaviy rivojlanish siyosatining uzoq muddatli istiqbollari belgilab berilgan³. Ushbu strategik hujjatlarda Xorazm viloyatini rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi “Tashqi

¹ https://unctad.org/system/files/official-document/ditctab2024d1_en.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://web.archive.org/web/20250501045257/https://lex.uz/ru/docs/-6600390>

savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-97-son Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 283-son va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son Qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mintaqa iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishda eksportdan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini tadqiq qilish yuzasidan xorijiy olimlar D.Asteriou, Stephen G.Hall, H.Hu, D.T.Nghia, N.H.Nam, M.V.L.Chan, K.Hou, X.Li, D.S.Mountayn, M.Falk, G.N.Yannaopoulos, M.Blomstrom, A.Kokko, M.Getzner, S.Moroz, G.Savoiu, S.Popa, M.Leibrext va A.Riedlva boshqalarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan⁴.

Mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini eksportni rivojlantirish va uni amalga oshirishga qaratilgan ekonometrik modellarni tadqiq qilish yuzasidan tadqiqotlar MDH mamlakatlardan Y.L.Andreeva, Y.V.Malisheva, A.B.Dajigova, I.A.Karachev, O.R.Nodirov, M.A.Ubaydullayev, Y.P.Alekseeva, R.M.Pritkov, G.I.Nemirova, D.G.Suxix, V.M.Kas, A.O.Tixomirov, Y.A.Tishkina, O.A.Shestakova, N.O.Yakushev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan⁵.

⁴ Asteriou D., Stephen G.Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. - pp. 140-397.; Helian Hu, Do Trong Nghia, Nguen Hoang Nam. Determinants of Vietnam's potential for agricultural export trade to Asia-Pacific economic cooperation (APEC) members. // Heliyon, 9, 2023. - p. 2.; Chan M.W.L., Hou K., Li X., Mountain D.C. (2014) Foreign direct investment and its determinants: A regional panel causality analysis. The Quarterly Review of Economics and Finance, 54(4), 579-589. <https://doi.org/10.1016/j.qref.2013.07.004>; Falk M. (2015) The relationship between FDI through backward linkages and technological innovations of local firms: Evidence for emerging economies. Eastern European Economics, 53(5), 424-438. <https://doi.org/10.1080/00128775.2015.1065507>; Yannopoulos G.N. (1990) Foreign Direct Investment and European Integration: The Evidence from the Formative Years of the European Community. // Journal of Common Market Studies, Vol. 28, - pp. 235-259; Blomstrom, Magnus & Kokko Ari. (1997) Regional Integration and Foreign Direct Investment: A Conceptual Framework and Three Cases; Getzner, Michael & Moroz, Serhiy. (2020) Regional development and foreign direct investment in transition countries: a case-study for regions in Ukraine. Post-Communist Economies, 32, 1-20. 10.1080/14631377.2020.1745564.; Savoiu, Gheorghe & Popa Suzana. (2012) Foreign direct investment - an econometric modelling; Leibrecht M., Riedl A. Modeling FDI based on a spatially augmented gravity model: Evidence for Central and Eastern European Countries. // e Journal of International Trade & Economic Development, 2012, Vol.23, ISSN.8. - pp. 1206-1237. Doi: 10.1080/09638199.2013.861006

⁵ Андреева Е.Л., Малышева Е.В. Теоретические подходы к исследованию экспортного потенциала национальной экономики. // Журнал экономической теории, 2020, Т.17, №2. - С. 266.; Дажигова А.Б. Экспортный потенциал как системообразующий элемент экономического развития страны. // Вестник магистратуры, 2022, №5-1 (128). - С. 60.; Карачев И.А. Определение категории "экспортный потенциал предприятия" в контексте формирования региональной модели ВЭД. // Вестник финансового университета, 4, 2015. - С. 25.; Нодиров О.Р., Ubaydullaev M.A., Алексеева Ю.П. Экспортный потенциал территории: сущность и современное состояние. // Экономика и общество, №7-8 (12), Июль-Август, 2019. - с. 16.; Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона. // Вестник ОГУ, №13 (132), декабрь,

O'zbekistonda mintaqani barqaror rivojlantirishda eksportdan samarali foydalanishning turli yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar S.S.G'ulomov, B.R.Ruzmetov, T.D.Doschanov, I.S.Abdullayev, M.Z.Boydadayev, R.N.Jiyamuratov, F.K.Sotvoldiyev, T.J.Raximov, F.S.Xolmurotov va boshqa qator iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan⁶.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda mintaqaviy eksport salohiyatini baholash metodikalari, eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash usullari, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish yo'llari hamda mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari turli nazariy va empirik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Biroq, olib borilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan baholash usullari va taklif etilgan modellar izlanish amalga oshirilgan hududlarning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirilgan. Ya'ni, eksport salohiyatidan foydalanish integral indeksini (ESFII) ishlab chiqish va uni ekonometrik modellashtirish bilan integratsiyalash, rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillarning sinergik o'zaro ta'sir mexanizmini aniqlash, ekstensiv modeldan intensiv modelga o'tishga asoslangan strategik yo'nalishlarni ekonometrik koeffitsientlar bilan asoslash hamda mintaqaviy eksport salohiyatidan samarali foydalanishning uch blokli kompleks modelini senariy prognozlari bilan birga ishlab chiqish bo'yicha maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Mazkur holatlar tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

2011. - С. 387.; Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт. // Вестник науки Сибири, 2015, №2 (17). - С. 62-63.; Тихомиров А.О. Экспортный потенциал: оценка формирования и использования. // Вестник полоцкого государственного университета, 2011. - с. 46. elib.psu.by; Тишкина Е.А. Современные тенденции экспорта КНР. // Российский внешнеэкономический вестник, №12 (Декабрь), 2009. - с. 19.; Шестакова О.А. Методические аспекты оценки экспортного потенциала предприятия. Вестник НТУ «ХПИ», 2013, №7 (981). - С. 173-181.; Якушев Н.О. Теоретические аспекты развития экспортного потенциала регионов. // Молодой ученый, 2015, №11. - С. 1046-1051.

⁶ Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. и др. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. / Под ред.акад. С.С. Гулямова. - Т.: Фан ва технология, 2007.; Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): дис. док. экон. наук. - Т.: ТГЭУ, 1988. - 380 с.; Рuzmetov Б.Р. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дисс. ...док. эк. наук. - Т., 1998. - 39 с.; Досчанов Т.Д. Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК. дисс. на соис. докт. экон. наук. - Т.: 1990. - 405 с.; Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. iqt.fan.dok. avtoreferati. - Т.: TDIU. 2017. - 66 b., Alimov R.X. va boshq. Korxonlarda investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish. O'quv qo'llanma. - Т.: Fan va texnologiya, 2014.; - 104 b.; Boydadayev M.Z. Tadbirkorlik faoliyatida eksport salohiyatini oshirishda to'qimachilik korxonalarining o'rni. // International scientific and practical conference "Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy". - 1028 b.; Jiyamuratov R.N. Erkin iqtisodiy hududning eksport salohiyatini oshirishning nazariy masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 6/2023, noyabr-dekabr (№00068). - 102 b.; Sotvoldiyev F.K. O'zbekiston Respublikasi hududlarining eksport salohiyati. // Iqtisodiyotda innovatsiyalar, №6, 2021. - 97 b.; Raximov T.J. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellari. // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. - Urganch, 2025. - 74 b. Xolmurotov F.S. Mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda eksportni rivojlantirishning ekonometrik tadqiq etish va prognozlash. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. - Urganch, 2026. - 74 b.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash asosida mintaqaviy eksportni rivojlantirish uchun ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini milliy hamda xorijiy izlanishlar asosida tizimlashtirish va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli (kelib chiqish manbai, ta'sir yo'nalishi, davriyligi, boshqaruvchanlik darajasi va mazmuniy xususiyatlari) tasnifini takomillashtirish;

Xorazm viloyati sharoitida rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar o'rtasidagi to'rt darajali (mega-, makro-, mezo- va mikro-) sinergik o'zaro ta'sir mexanizmini aniqlash;

mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish va mintaqaga moslashtirilgan mexanizmlarni taklif etish;

mintaqa eksport salohiyatidan foydalanish darajasini baholash imkonini beruvchi integral indeksini (ESFII) beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida ishlab chiqish va uning uch darajali izohlash mezonlarini asoslash;

Xorazm viloyati eksportining iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini ARDL-ECM modeli yordamida baholash va institutsional o'zgarishlarga moslashuv tezligini aniqlash;

mintaqa eksport tarkibining monoeksportdan diversifikatsiyalashgan modelga o'tish jarayonini tahlil qilish va tarmoq diversifikatsiyasi yo'nalishlarini aniqlash;

mintaqa eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning ekstensiv modeldan intensiv modelga o'tishga asoslangan strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning uch blokli (kirish, hisoblash va natija parametrlari) kompleks modelini shakllantirish va 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Xorazm viloyati va uning hududlari eksport faoliyati ko'rsatkichlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishni baholash va prognozashtirish modellarini ishlab chiqishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari Tadqiqot ishida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, grafik usul, mantiqiy umumlashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, ARDL(3,4,1,1,1)-ECM modeli, Herfindahl-Hirschman indeksi, ESFII integral indeksi, Durbin-Watson testi, CUSUM parametrlar barqarorligi testi, SWOT-tahlil va boshqa iqtisodiy-statistik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli (kelib chiqish manbai, ta'sir yo'nalishi, davriyligi, boshqaruvchanlik darajasi va mazmuniy xususiyatlari) tasnifi takomillashtirish asosida Xorazm viloyati sharoitida rag'batlantiruvchi

(investitsiyalar - YaHMning 30,5 foizi va mehnat resurslari 1,08 mln. kishi) hamda cheklovchi (suv tanqisligi va dengizga chiqish yo'qligi) omillar o'rtasidagi to'rt darajali (mega-, makro-, mezo- va mikro-) sinergik o'zaro ta'sir mexanizmi taklif etilgan;

mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan foydalanish darajasini beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida yagona raqamli ifodada baholash imkonini beruvchi integral indeksi (ESFII) taklif etilgan va uning uch darajali izohlash mezonlari (0-0,3 - "past"; 0,3-0,5 - "o'rtacha" va 0,5-1,0 - "yuqori") asoslangan;

mintaqa eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning ekstensiv modeldan (hajm ustuvorligi) intensiv modelga (sifat ustuvorligi) o'tishga asoslangan to'rtta strategik yo'nalishi (S_1 - yuqori qo'shilgan qiymatga o'tish, S_2 - eksport intensivligini oshirish, S_3 - sanoat va xizmatlarni tashqi bozorlarga moslashtirish va S_4 - eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish) taklif etilgan;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning uch blokli (kirish, hisoblash va natija parametrlari) kompleks modeli asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mintaqa eksportining iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini ARDL(3,4,1,1,1)-ECM modeli yordamida baholash asosida Xorazm viloyati iqtisodiyotining xatoni tuzatish koeffitsienti ($ECT = -0,0494$) aniqlangan va institutsional o'zgarishlarga to'liq muvozanatga qaytish uchun taxminan 11 yil talab etilishi asoslangan;

mintaqaviy eksport salohiyatidan foydalanish darajasini baholashda beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida ESFII integral indeksining 2010-2024-yillar davomida 0,329 dan 0,836 gacha, ya'ni 2,5 baravarga o'sishi aniqlangan va shu asosda eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini monitoring qilish tizimi taklif qilingan;

eksport tarkibini diversifikatsiya qilish jarayonida paxta tolasi ulushining 83,8 foizdan 0 foizga tushishi va uning o'rnini oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar hamda qayta ishlangan mahsulotlar egallashi natijasida monoeksportdan diversifikatsiyalashgan modelga o'tish mexanizmi tahlil qilingan va tarmoq diversifikatsiyasi indeksining (DI) 0,282 dan 0,368 gacha o'sishi asoslangan;

mintaqada eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarishgacha bo'lgan davr kreditlari, eksport fakturasini diskontlash, faktoring xizmatlari hamda Eksport kafolatlari fondini (EKF) tashkil etish mexanizmlari taklif qilingan;

Xorazm viloyati eksport salohiyatidan samarali foydalanishning uch blokli (kirish, hisoblash va natija parametrlari) kompleks modeli asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan Quadratic trend modeli yordamida bazaviy (ESFII: 0,938 dan 0,997 gacha va eksport hajmi: 550 dan 750 mln. dollargacha), pessimistik va optimistik senariylar bo'yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi va

uning hududiy boshqarmasi ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ishda taklif qilingan taklif va tavsiyalardan mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli tasnifini takomillashtirish, rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar o'rtasidagi to'rt darajali (mega-, makro-, mezo- va mikro-) sinergik o'zaro ta'sir mexanizmini ishlab chiqish, beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida ESFII integral indeksini shakllantirish va uning izohlash mezonlarini asoslash bilan belgilanadi. Shuningdek, ARDL(3,4,1,1,1)-ECM modeli yordamida eksportning iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatli ta'sirini ekonometrik baholashda, monoeksportdan intensiv modelga o'tish mexanizmi hamda to'rtta strategik yo'nalishni (S₁-S₄) ishlab chiqishda, uch blokli (kirish, hisoblash va natija) kompleks model asosida eksport ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari aniqlanib, mavzuning ilmiy-uslubiy bazasini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijalaridan Xorazm viloyati eksport salohiyatidan samarali foydalanish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda, ESFII indeksi asosida hududlar kesimida monitoring tizimini taklif etishda, eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini (eksport kreditlari, faktoring va Eksport kafolatlari fondi) asoslashda hamda eksport ko'rsatkichlarini prognozlash modelini ishlab chiqishda, shuningdek "Tashqi iqtisodiy faoliyat", "Jahon iqtisodiyoti va XIM" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" fanlaridan o'quv-uslubiy ta'minotini boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik tadqiq etish va prognozlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli (kelib chiqish manbai, ta'sir yo'nalishi, davriyligi, boshqaruvchanlik darajasi va mazmuniy xususiyatlari) tasnifi takomillashtirish asosida Xorazm viloyati sharoitida rag'batlantiruvchi (investitsiyalar - YaHMning 30,5 foizi va mehnat resurslari 1,08 mln. kishi) hamda cheklovchi (suv tanqisligi va dengizga chiqish yo'qligi) omillar o'rtasidagi to'rt darajali (mega-, makro-, mezo- va mikro-) sinergik o'zaro ta'sir mexanizmi bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 25-martdagi 10-09/2819-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatda mintaqaviy rivojlanish omillarini tizimli boshqarish va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda eksport siyosatini shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan foydalanish darajasini beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida yagona raqamli ifodada baholash imkonini beruvchi integral indeksi (ESFII) taklif etilgan va uning uch darajali izohlash mezonlari (0-0,3 - "past"; 0,3-0,5 - "o'rtacha" va 0,5-1,0 - "yuqori") bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 25-martdagi 10-09/2819-son ma'lumotnomasi). Natijada,

viloyatda ESFII ko'rsatkichining 2010-2024-yillar davomida 0,329 dan 0,836 gacha o'sganligi aniqlangan va eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish imkoniyati yaratilgan;

mintaqa eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning ekstensiv modeldan (hajm ustuvorligi) intensiv modelga (sifat ustuvorligi) o'tishga asoslangan to'rtta strategik yo'nalishi (S_1 - yuqori qo'shilgan qiymatga o'tish, S_2 - eksport intensivligini oshirish, S_3 - sanoat va xizmatlarni tashqi bozorlarga moslashtirish va S_4 - eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish) bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 25-martdagi 10-09/2819-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga qo'llash natijasida viloyatda paxta tolasiga asoslangan monoeksportdan (2010-yilda 83,8 %) diversifikatsiyalashgan modelga o'tish strategiyasini ilmiy asosda shakllantirish va tarmoq diversifikatsiyasi indeksini 0,282 dan 0,60 gacha oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ishlab chiqilgan uch blokli (kirish, hisoblash va natija parametrlari) kompleks modeli asosida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari (bazaviy senariy: ESFII 0,938 dan 0,997 gacha, eksport hajmi 550 dan 750 mln. dollargacha, korxonalar soni 480 dan 600 donagacha va bandlik 14000 dan 20000 nafar kishigacha yetishi) bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2026-yil 25-martdagi 10-09/2819-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyat eksport salohiyatini rivojlantirishning bazaviy, pessimistik va optimistik senariylarini qiyoslash hamda strategik qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat. Dissertatsiya hajmi jami 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida amalga oshirilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi tavsiflangan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari”** nomli birinchi bobda mintaqaviy barqaror rivojlanishning ilmiy-nazariy jihatlarini xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari asosida tizimlashtirilgan hamda o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, mintaqani barqaror rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar asosida takomillashtirilgan tasnif taklif qilingan va Xorazm viloyati sharoitida rag‘batlantiruvchi hamda cheklovchi omillar o‘rtasidagi sinergik o‘zaro ta’sir mexanizmi asoslangan. Shuningdek, bu bobda mintaqaning eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilib, Xorazm viloyati sharoitiga moslashtirilgan mexanizmlar tizimi ishlab chiqilgan.

Zamonaviy iqtisodiy fanlar tizimida mintaqaviy iqtisodiyot o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi. “Mintaqa” tushunchasiga turli olimlar tomonidan har xil ta’riflar berilgan: V.I.Danilov-Danilyan mintaqaviy barqaror rivojlanishni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarning muvozanatli rivojlanishi sifatida izohlagan bo‘lsa-da, A.G.Granberg uni mintaqaning o‘z rivojlanish traektoriyasini saqlab qolish va yangi sifat holatiga o‘tish qobiliyati deb ta’riflagan. Mazkur tadqiqotda “mintaqa” tushunchasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan yaxlit hududiy birlik sifatida qabul qilingan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi yarim asrlik evolyutsiya davomida global muammolarni hal qilishning asosiy paradigmasiga aylangan. Rim klubining dastlabki ogohlantirishlaridan boshlab, Brundtland hisoboti orqali klassik ta’rif olgan va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida aniq ko‘rsatkichlarga aylangan bu konsepsiya bugungi kunda mintaqalarni rivojlantirish strategiyasining nazariy asosini tashkil etadi. Mintaqaviy barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional komponentlarning muvozanatli rivojlanishini nazarda tutadi.

Tadqiqotda neoklassik o‘sish nazariyasi (R.Solow, T.Svan), endogen o‘sish nazariyasi (P.Romer va R.Lukas), yangi iqtisodiy geografiya (P.Krugman), institutsional iqtisodiyot (D.Nort) hamda klaster nazariyasi (M.Porter) kabi yondashuvlar mintaqaviy kontekstda tahlil qilingan. Xorazm viloyati sharoitida neoklassik nazariya kapital va mehnat resurslarining mintaqalararo harakatini tushunish, endogen nazariya inson kapitali va innovatsiyalar rolini asoslash va klaster nazariyasi esa tarmoq kooperatsiyasining eksport salohiyatiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini ilmiy asoslash uchun rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va ularni tizimli ravishda tasniflash zarur. Dissertatsiyada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida omillar tushunchasining evolyutsiyasi kuzatilgan. Xususan, dastlabki klassik yondashuvda faqat yer, mehnat va kapital omillar deb qaralgan bo‘lsa, R.Solow va boshqa olimlar texnologik taraqqiyot va inson kapitalini ham muhim omillar sifatida e’tirof etgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa institutsional muhit, innovatsion faollik va infratuzilma rivojlanganligi ushbu qatorga kiritilgan.

Dissertatsiyada mintaqani barqaror rivojlanish omillari o‘rganilib, umumiy holda tizimlashtirildi (1-jadval):

Mintaqani barqaror rivojlanish omillari⁷

№	Omilar guruhi	Asosiy mazmuni	Ta'sir yo'nalishi
1	Iqtisodiy omillar	Investitsiyalar, sanoat, xizmatlar sohasi va ishlab chiqarish hajmi	YaIM o'sishi va bandlik oshishi
2	Ijtimoiy omillar	Aholi turmush darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash	Ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali
3	Infratuzilma omillari	Transport, kommunikatsiya va energiya ta'minoti	Iqtisodiy faollikni kuchaytirish
4	Ekologik omillar	Atrof-muhit muhofazasi va resurslardan oqilona foydalanish	Barqarorlik va salomatlik
5	Institutsional omillar	Qonunchilik, boshqaruv sifati va davlat siyosati	Investitsiya muhiti va ishonch bildirish
6	Innovatsion omillar	Ilm-fan, texnologiyalar va raqamlashtirish	Raqobatbardoshlikni oshirish
7	Demografik omillar	Aholi soni, mehnat resurslari va migratsiya	Mehnat bozori va iste'mol
8	Turizm va xizmat ko'rsatish omillari	Mehmondo'stlik, servis sifati va turistik infratuzilma	Daromad va hududiy rivojlanish

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqaning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni bir vaqtning o'zida ta'minlash jarayonini aks ettiradi. Ushbu jarayonga yuqorida keltirilgan omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, mintaqaning barqaror rivojlanishi kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional omillar bir-biri bilan uyg'un holda rivojlantirilsa, yuqori samaraga erishish mumkin.

Tadqiqotda mintaqaviy rivojlanish omillarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Jumladan, ular mintaqaning ichki salohiyatini hamda uning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Shu sababli, mintaqaviy omillar tahlili kompleks va ko'p o'lchovli xarakterga ega. Mavjud tasniflarga tanqidiy yondashilgan holda mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli tasnifi takomillashtirildi (2-jadval).

Mintaqaviy rivojlanish omillarini tasniflash⁸

№	Tasniflash mezon	Turlari (kategoriyalari)	Tavsifi
1	Kelib chiqish manbai bo'yicha	ichki (endogen) va tashqi (ekzogen)	ichki: tabiiy resurslar, infratuzilma va mehnat salohiyati tashqi: milliy siyosat, geosiyosat va xalqaro kon'yunktura
2	Ta'sir yo'nalishi bo'yicha	rag'batlantiruvchi va cheklovchi	rag'bat: qulay geografik o'rin va boy madaniy meros cheklov: suv tanqisligi, yomon infratuzilma, markazdan uzoqlik
3	Ta'sir davriyligi bo'yicha	qisqa muddatli (1 yilgacha), o'rta muddatli (1-5 yil) va uzoq	qisqa: bozor o'zgarishlari va mavsumiylik o'rta: investitsiya loyihalari va kadrlar dasturi uzoq: demografiya, iqlim o'zgarishi va

⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ Internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

		muddatli (5 yildan ortiq)	tuzilmaviy islohotlar
4	Boshqaruv- chanlik darajasi	boshqariladigan, qisman boshqariladigan va boshqarib bo'lmaydigan	boshqariladigan: soliq va investitsiya siyosati qisman: tadbirkorlik faolligi va migratsiya. nazoratsiz: tabiiy ofatlar va global iqtisodiy inqirozlar
5	Mazmuniy xususiyatlari	iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional	iqtisodiy: savdo va moliya ijtimoiy: bandlik va ta'lim ekologik: tabiiy resurslar institutsional: qonunchilik bazasi

Ushbu tasniflangan har bir mezon mintaqaviy rivojlanishning muayyan jihatini aks ettirib, birgalikda esa omillar tizimini to'liq qamrab oladi.

Takomillashtirilgan tasnif asosida Xorazm viloyati sharoitida rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar aniqlandi. Rag'batlantiruvchi omillar qatoriga viloyatdagi investitsiyalar (YaHM 30,5 foizi), mehnat resurslari (1,08 mln. kishi), boy madaniy-tarixiy meros va noyob hunarmandchilik an'analari kiradi. Cheklovchi omillar esa suv tanqisligi, dengizga chiqish yo'qligi, innovatsion faollikning pastligi va transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ifodalanadi.


Tadqiqotning muhim ilmiy natijasilaridan biri sifatida ushbu omillar o'rtasidagi to'rt darajali sinergik o'zaro ta'sir mexanizmi taklif etildi. Ushbu mexanizm omillarning ierarxik tuzilishini aks ettirib, ularni megadaraja (jahon bozorlaridagi talab, xalqaro savdo qoidalari va global raqobat sharoitlari), makrodaraja (O'zbekistonning tashqi savdo siyosati, valyuta kursi rejimi va eksportni rag'batlantirish mexanizmlari), mezodaraja (viloyatning geografik joylashuvi, ishlab chiqarish salohiyati, transport infratuzilmasi va kadrlar tayyorlash tizimi) va mikrodaraja (eksportchi korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari, mahsulot sifati va boshqaruv samaradorligi) bo'yicha farqlaydi.

XORAZM VILOYATINI RIVOJLANISH OMILLARINING SINERGIK ALOQALARI


(2010-2024-yillar ma'lumotlari asosida)

SINERGIY A SAMARASI


I. INVESTITSİYALAR ↔ INSON KAPITALI



II. INFRATUZILMA ↔ EKSPORT FAOLIYATI



III. INSTITUTIONAL MUHIT ↔ TADBIRKORLIK FAOLLIGI



UMUMIY SINERGIK NATIJA:

ESFII: 0,329 (2010-yilda) dan 0,836 (2024-yilda) ga teng bo'lib, 154 % oshgan.
Omllarning alohida o'sish sur'atlari yig'indisidan kattaroq integral natija

1-rasm. Mintaqaviy rivojlanish omillari o'rtasidagi sinergik o'zaro ta'sir mexanizmi⁹

Iyerarxik yondashuv qaysi omillarga bevosita ta'sir ko'rsatish mumkinligini va

⁹ Muallif ishlanmasi.

qaysilariga moslashish zarurligini aniqlash imkonini beradi hamda omillarning birgalikdagi sinergik ta'siridan foydalanishga asoslangan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi (1-rasm).

Taklif etilgan mexanizmida darajalar o'rtasidagi vertikal ta'sir uzatilish kanallari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, megadaraja omillari (jahon bozorlaridagi talab va xalqaro savdo qoidalari) makrodarajadagi tashqi savdo siyosatini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2017-yilda Xitoyning paxta tolasiga bo'lgan talabining pasayishi O'zbekistonning eksport siyosatini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lgan va buning natijasida makrodarajada valyuta bozori liberallashtirilgan. O'z navbatida, makrodarajadagi ushbu islohot mezodarajada Xorazm viloyati eksportyor korxonalari uchun erkin valyuta muomalasi imkoniyatini yaratdi. Bu esa mikrodarajada korxonalarning xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish qobiliyatini kuchaytirdi. Natijada, eksportyor korxonalar soni 2017-yildan 155 tadan 2024-yilda 395 taga yetdi, ya'ni ushbu vertikal ta'sir zanjiri aniq miqdoriy ifodasini topadi.

Qarama-qarshi yo'nalishda ham ta'sir uzatilishi kuzatilgan. Ya'ni, mikrodarajadagi eksportchi korxonalarning qayta ishlangan mahsulotlarga ixtisoslashuvi mezodarajada viloyat eksport tarkibining tubdan o'zgarishiga (paxta tolasi ulushining 83,8 foizdan nolga tushishi) sabab bo'lgan. Bu esa makrodarajada milliy eksport strategiyasiga qayta ishlangan mahsulotlar ustuvorligini kiritish uchun empirik asos bo'ldi.

Sinergik ta'sirning miqdoriy ifodasi shundan iboratki, tahlil qilingan davrda alohida omillarning o'rtacha o'sish sur'atlari yig'indisi (investitsiyalar - yillik 28,3 foiz, inson kapitali - 10,8 foiz va eksport - 7,3 foiz) oddiy summaga ko'ra, ESFII taxminan 0,60-0,65 darajasiga olib kelishi kutilgan holda haqiqatda integral ko'rsatkich 0,836 ga yetgan. Demak, omillarning o'zaro kuchaytiruvchi ta'siri natijasida yuzaga kelgan sinergik qo'shimcha samaraning hissasi ESFII umumiy qiymatida taxminan 0,19-0,24 birlikni, ya'ni jami o'sishning 28-36 foizini tashkil etdi. Ushbu holat iqtisodiy omillarni alohida emas, ya'ni tizimli va integratsiyalashgan tarzda boshqarish zaruriyatini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqotda mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya), jadal rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoy, Turkiya va Vyetnam) va MDH davlatlari (Qozog'iston, Gruziya va Rossiya) tajribalari o'rganildi.

Germaniyaning savdo-sanoat palatalari tizimi va "Mittelstand" modeli kichik va o'rta eksportchi korxonalarni kompleks qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim saboqlar beradi. Janubiy Koreyaning uzoq muddatli strategik qarashi va mintaqaviy sanoat klasterlari (Ulsan - avtomobilsozlik va Pohang - metallurgiya) mintaqaviy ixtisoslashuvning samaradorligini ko'rsatadi. Yaponiyaning "kaydzen" falsafasi va Toyota ishlab chiqarish tizimi eksport mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda sifat boshqaruvi ahamiyatini tasdiqlaydi. Vyetnamning eksport qayta ishlash zonalarini tajribasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va bosqichma-bosqich takomillashtirish strategiyasining muvaffaqiyatli namunasi bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy tajribalarni umumlashtirish natijasiga asosan, eksport salohiyatini

rivojlantirish kamida 10-15 yillik izchil strategiyani talab qiladi. Ixtisoslashtirilgan institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimi (eksportni rag‘batlantirish markazlari va “yagona darcha” xizmatlari) zarur. Mintaqaviy klaster yondashuvi korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirib, umumiy samaradorlikni oshiradi. Kadrlar tayyorlash tizimini eksport ehtiyojlariga moslashtirish sifatli o‘shishning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Mazkur tajribalarni Xorazm viloyatining o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirib, viloyat eksport salohiyatini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan mexanizmlar tizimi ham ishlab chiqildi. Ularga institutsional tizim (eksportni qo‘llab-quvvatlash markazini tashkil etish), klaster yondashuvi (to‘qimachilik, turizm va agro-qayta ishlash klasterlari), erkin iqtisodiy zonalar (infratuzilma, soliq va bojxona imtiyozlari), kadrlar tayyorlash (dual ta’lim tizimi va xalqaro savdo bo‘yicha maxsus kurslar), an’anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish (xalqaro sertifikatlash, milliy brendlarni rivojlantirish) va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish (“yagona darcha” xizmati, kompleks qo‘llab-quvvatlash) kabilar kiradi. Mazkur mexanizmlar o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilganda sinergiya samarasi yuzaga kelib, viloyatning eksport salohiyatini barqaror oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyati eksport salohiyatidan samarali foydalanish holatini iqtisodiy-statistik usullar asosida baholash”** nomli ikkinchi bobida Xorazm viloyatida eksport salohiyatidan samarali foydalanishning holati tahlil qilingan, eksport samaradorligini kompleks baholash ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan va uning asosida integral indeks (ESFII) taklif etilgan hamda eksport salohiyatidan foydalanishning mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini ekonometrik usullar asosida baholash amalga oshirilgan.

Dastlab, mintaqani barqaror rivojlantirishda mamlakatimiz eksport salohiyatidan samarali foydalanish borasida eksport sohasi ko‘rsatkichlari tarkibi tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining eksport sohasi ko‘rsatkichlari tarkibi (XSST-2008), mln. dollarda¹⁰

№	Ko‘rsatkichlar	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	699,8	983,9	878,5	821,1	544,5	137	208,9	350,8	204,1	421,8	434,4	693,6	973,7	1305,2	1201,1
2	Turli xil tayyor buyumlar	153,6	196,7	233,1	269,3	230,3	213,1	245,8	311,8	337,6	435,7	617,3	780,4	1106,1	1195,6	1105,7
3	Boshqa tovarlar	2624,4	3188,7	666,2	1648,2	1240,2	1920,6	2807,6	3260	2939	4978,2	5813,1	4303,9	4132,3	8192,6	7555,1
4	Xizmatlar	1335,5	1772,4	2356,4	2942,8	3030,3	3061,3	3120,6	2474,5	3070	3434,8	2005	2581,7	4456,7	5640,4	7571,7
5	Ichimliklar va tamaki	44,5	41,9	43	32,4	23	23,1	17,8	23,4	22,3	29,8	27,1	36	111	123	138,5
6	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1610,4	1805,7	1733,3	1864,4	1927	1739,5	1712,6	2200,7	2411,8	2752,9	2906,4	4332,9	4383,5	4051,5	4175,8
7	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	637,9	819,6	747,8	580,3	620,6	594,8	817,6	860,7	881,3	836,5	820,9	1136,6	1307,7	1307,4	1680,7
8	Hayvonlar va	1,4	0,4	0,3	0,1	0,1	0,2	0	0	0,1	12,4	26,8	1,5	21,2	14,2	43,5

¹⁰ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

	usimliklar moylari (yog'lar) va mumlar															
9	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1733,5	1486,1	1403,9	1305,3	1174,6	885,3	788,5	626,6	427,5	591,2	456,1	509,5	393,6	321,4	315,4
10	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2907,8	2722,2	4656	3435,3	3110,2	2685,1	1713,9	1607,6	2666,8	2528,9	659	914,8	1215,2	940,6	1307,6
11	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1056,2	1777,4	736,9	1399,3	1631,2	1239,6	644,9	817,9	1029,9	1436,4	1336,2	1371,8	1631,5	1777,6	2175

Ushbu 3-jadvalga asosan, xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi drayverga aylangan, qayta ishlash sanoati (tayyor mahsulotlar) jadal rivojlanmoqda, xomashyo eksporti kamayib, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga o'tish kuzatilmoqda, energetika sohasida o'zgaruvchanlik yuqori bo'lgan va iqtisodiyot diversifikatsiyasi esa kuchaygan. Shulardan kelib chiqib, 2010-2024-yillar davomida iqtisodiy tuzilma xomashyoga yo'nalgan modeldan xizmatlar va qayta ishlashga yo'nalgan modelga o'tayotgani yaqqol ko'rinadi.

Shuningdek, Xorazm viloyati mintaqasida eksport sohasining tarkibi tahlil qilindi (3-jadval).

4-jadval

Xorazm viloyatining eksport tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)¹¹

Ko'rsatkichlar	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Tashqi savdo aylanmasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
eksport	66,4	45,6	52,7	44,1	47,9	37,5	26,3	36,1	44,7	31,4	34,5	36,9	39,8
Eksport tarkibi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,1	2,2	2,2	9,9	11,4	26,8	47,5	29,5	30,2	32,1	45,0	53,8	56,2
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,4	0,3	0,2	0,1	0,3	0,1	0,0	-	0,0	0,9	0,1	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	66,0	85,3	76,2	56,0	44,9	13,2	11,3	9,2	4,6	2,5	1,7	1,4	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	0,1	0,9	0,0	0,6	2,1	1,0	1,0	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar) va mumlar	-	-	-	-	-	-	0,3	1,3	0,0	0,5	-	0,3	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,4	0,6	0,7	0,8	0,7	0,8	0,4	0,5	0,5	0,4	0,6	0,2	0,2
Sanoat tovarlari	4,3	2,2	12,6	24,7	34,3	39,7	25,7	40,7	49,2	43,3	34,5	27,4	23,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,4	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1	0,1	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	0,1	0,0	-	0,2	0,4	4,1	2,2	13,5	6,7	12,5	9,8	2,2	4,2
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	0,1
xizmatlar	27,8	9,3	8,0	8,2	8,1	13,6	11,4	5,2	8,1	6,6	6,2	13,6	12,6

Ushbu 4-jadvalga asosan, 2013-2025-yillarda eksport tarkibida chuqur transformatsiya yuz bergan. Ya'ni, xomashyoga asoslangan iqtisodiyotdan agrar va

¹¹ <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

qisman sanoat mahsulotlariga o'tish amadga oshirilgan. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va barqaror rivojlanishga intilayotganini ko'rsatadi. Bu borada tahlil qilinayotgan davrda eksport tarkibida xomashyodan tayyor mahsulotlarga o'tish, agrar sektorning kuchayishi va xizmatlar sohasining tiklanishi kabi ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Unga muvofiq, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining pastligi iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotning muhim ilmiy natijasi sifatida mintaqani barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatidan foydalanish darajasini beshta ko'rsatkich asosida yagona raqamli ifodada baholash imkonini beruvchi integral indeksi (ESFII) taklif etildi. Tadqiqot natijalarida eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashda yakka ko'rsatkichlar (eksport hajmi va eksport ulushi) qo'llaniladi. Biroq, ular eksport faoliyatining ko'p qirrali xarakterini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli, tadqiqotda eksport salohiyatidan foydalanishning turli jihatlarini iqtisodiy samaradorlik, tashqi savdo balansi, eksport sifati, institutsional rivojlanish va ijtimoiy ta'sirni qamrab oluvchi integral indeks ishlab chiqildi.

ESFII qiymatini hisoblash uchun quyidagi beshta asosiy ko'rsatkichdan foydalanildi:

1) Eksport samaradorligi koeffitsienti (ESK) eksportning YaHMdagi ulushini ifodalaydi va mintaqa iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganlik darajasini ko'rsatadi:

$$ESK = \frac{E \times K}{YaHM} \times 100\% \quad (1)$$

bu yerda: E - eksport hajmi (mln. AQSh dollar), K - valyuta kursi (so'm/dollar), YaHM - yalpi mintaqaviy mahsulot (mlrd. so'm).

Jahon amaliyotida ushbu ko'rsatkichning 10 foizdan yuqori bo'lishi eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot belgisi, 5-10 foiz o'rtacha daraja va 5 foizdan past qiymat esa past eksport yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

2) Eksport qoplamligi koeffitsienti (EQK) tashqi savdo balansining holatini baholaydi:

$$EQK = \frac{E}{I} \quad (2)$$

bu yerda: E - eksport hajmi, I - import hajmi. EQK qiymatining 1 dan katta bo'lishi tashqi savdo balansining ijobiy ekanini va 1 dan kichik bo'lishi esa tashqi savdo defitsiti mavjudligini anglatadi.

3) Qo'shilgan qiymat ulushi (QQU) eksport tarkibida qayta ishlangan, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushini aks ettiradi. Bu ko'rsatkichning oshishi eksportning xomashyo yo'nalishidan sanoat yo'nalishiga o'tishini anglatadi.

4) Eksportyor korxonalar soni (EKS) institutsional rivojlanishni ifodalaydi. Eksportyor korxonalar sonining oshishi eksport infratuzilmasining mustahkamlanishini ko'rsatadi.

5) Eksportyor korxonalardagi bandlik (EXB) eksportning ijtimoiy ta'sirini aks ettiradi va eksport sektorida yaratilgan ish o'rinlari sonini ifodalaydi.

Integral indeksni hisoblash ikki bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda

har bir ko'rsatkich min-max normalizatsiyasi yordamida 0 dan 1 gacha bo'lgan intervalga o'tkazildi:

$$X_{norm} = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (3)$$

Ikkinchi bosqichda normalizatsiya qilingan ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati hisoblandi:

$$ESFII = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n X_{norm,i} \quad (4)$$

ESFII qiymatining 0-0,3 - past daraja (eksport salohiyatidan foydalanish yetarli emas); 0,3-0,5 - o'rtacha daraja (eksport salohiyatidan qisman foydalanilmoqda) va 0,5-1,0 - yuqori daraja (eksport salohiyatidan samarali foydalanilmoqda) kabi uch darajali izohlash mezonlari asoslandi.

ESFII qiymatining 2010-2024-yillar dinamikasi tahlili quyidagi uch asosiy bosqichni ko'rsatadi:

Birinchi bosqich (2010-2011-yy.) - nisbatan barqaror o'rtacha daraja (ESFII: 0,325-0,329). Bu davrda EQK qiymatining yuqori qiymati integral indeksning asosiy tashkil etuvchisi bo'lgan.

Ikkinchi bosqich (2012-2017-yy.) - pasayish va turg'unlik davri. ESFII qiymati 0,182 dan 0,294 gacha oraliqda past darajaga tushgan, 2014-yilda eng past qiymatga (0,182) yetgan.

Uchinchi bosqich (2018-2024-yy.) - barqaror o'sish. 2021-yilda birinchi marta yuqori daraja mezoniga yetib (0,530), 2024-yilda 0,836 ga oshgan. Shunday qilib, ESFII 14 yil davomida 2,5 marta yaxshilangan.

2024-yilda beshta tarkibiy ko'rsatkichdan to'rttasi (ESK, QQU, EKS va EXB) maksimal qiymatga (1,000) yetgan va faqat EQK past qiymatda (0,178) qolgan. Bu holat eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligining yanada oshishi uchun asosiy zaxira tashqi savdo balansi holatini yaxshilashda ekanini ko'rsatadi.

Integral indeksni hisoblashda beshta ko'rsatkichga teng vazn (har biriga 1/5) berilishi ilmiy mantiq bilan asoslandi. Unga asosan, ESFII tarkibidagi har bir ko'rsatkich eksport salohiyatidan foydalanishning alohida va boshqalarga qaytarilmas o'lchamini aks ettiradi. ESK iqtisodiy samaradorlikni, EQK tashqi savdo muvozanatini, QQU eksport sifatini, EKS institutsional bazani va EXB esa ijtimoiy ta'sirni ifodalaydi. Ushbu besh o'lcham bir-birini to'ldiruvchi, ammo o'zaro almashtirish imkoniyati cheklangan xarakterga ega bo'lganligi sababli ulardan birortasiga sun'iy ustuvorlik berish indeksning kompleks baholash xususiyatini buzishi mumkin. Shu bois, teng vaznli yondashuv qo'llangan bo'lib, bu usul BMT Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) kabi xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan integral ko'rsatkichlar metodologiyasiga ham mos keladi (5-jadval).

Xorazm viloyati eksport salohiyatidan foydalanish integral indeksi (ESFII)¹²

Yillar	ESK normasi	EQK normasi	QQU normasi	EKS normasi	EXB normasi	ESFII	Daraja
2010	0.643	1.000	0.000	0.000	0.000	0.329	O'rtacha
2011	0.701	0.805	0.083	0.018	0.019	0.325	O'rtacha
2012	0.370	0.513	0.125	0.079	0.038	0.225	Past
2013	0.465	0.633	0.167	0.121	0.082	0.294	Past
2014	0.179	0.188	0.208	0.189	0.146	0.182	Past
2015	0.048	0.296	0.250	0.203	0.186	0.197	Past
2016	0.000	0.169	0.333	0.256	0.217	0.195	Past
2017	0.079	0.220	0.417	0.297	0.272	0.257	Past
2018	0.297	0.095	0.500	0.466	0.391	0.350	O'rtacha
2019	0.424	0.000	0.583	0.504	0.502	0.403	O'rtacha
2020	0.572	0.081	0.667	0.485	0.470	0.455	O'rtacha
2021	0.733	0.176	0.750	0.539	0.452	0.530	Yuqori
2022	0.601	0.039	0.833	0.543	0.478	0.499	O'rtacha
2023	0.689	0.066	0.917	1.000	0.826	0.700	Yuqori
2024	1.000	0.178	1.000	1.000	1.000	0.836	Yuqori

5-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ESFII tarkibiy tuzilmasida 2010-2024-yillar davomida tubdan sifat o'zgarishi sodir bo'lgan. 2010-yilda integral indeksning asosiy tashkil etuvchisi EQK bo'lgan (1,000), qolgan to'rt ko'rsatkich esa deyarli nol darajada turgan (QQU - 0,000, EKS - 0,000 va EXB - 0,000). Bu holat viloyat eksportining paxta tolasiga asoslangan monoeksport modelida tashqi savdo balansi ijobiy bo'lishiga qaramay, eksportning sifat jihatlari, institutsional bazasi va ijtimoiy ta'siri shakllanmaganini anglatadi. 2024-yilga kelib esa vaziyat tubdan o'zgardi. Ya'ni, ESK, QQU, EKS va EXB ko'rsatkichlari maksimal qiymatga (1,000) yetdi, ammo EQK qiymati 0,178 ga tushdi. Demak, viloyat eksporti sifat jihatdan to'liq transformatsiyaga uchragan. Biroq, import hajmining eksportdan sezilarli darajada oshib ketishi tashqi savdo balansi ko'rsatkichini pasaytirgan.

Mazkur tarkibiy tahlil natijalariga asosan, 2024-yilda EQK normalizatsiya qilingan qiymati (0,178) ESFII qiymatining nazariy maksimumidan (1,000) uzoqlashuvining yagona omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Agar EQK qiymatining normalizatsiya qilingan qiymati kamida 0,500 darajasiga yetkazilganida ESFII qiymati 0,900 chegarasiga ko'tarilgan bo'lardi. Shu sababli, viloyat eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirishning eng muhim zaxirasi import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi savdo taqchilligini kamaytirish orqali EQK ko'rsatkichini yaxshilashdan iborat bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyati barqaror rivojlantirishida eksport salohiyatidan samarali foydalanishni takomillashtirish va istiqbolli yo'nalishlari”** nomli uchinchi bobida mintaqa eksport salohiyatini rivojlantirishning institutsional-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinib, tarmoq va mahsulot tarkibiy strategiyalari ishlab chiqilgan hamda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning kompleks modeli va 2026-2030-yillarga prognoz parametrlari asoslangan.

Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, eksport faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uni qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizimning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. D.Nort va O.Uilyamson

¹² Muallif hisob-kitoblari.

tomonidan asoslangan institutsional yondashuv eksport faoliyatidagi tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, axborot assimetriyasini bartaraf etish va koordinatsiya muammolarini hal qilish uchun zarur nazariy asosni taqdim etadi.

Tadqiqotda eksport sohasidagi institutlarning tartibga soluvchi institutlar (huquqiy-normativ baza), qo'llab-quvvatlovchi institutlar (moliyaviy mexanizmlar), muvofiqlashtiruvchi institutlar (tashkiliy-boshqaruv) va infratuzilma institutlari (logistika va xizmatlar) kabi to'rt guruhli tasnifi ishlab chiqildi. Ushbu tasnif Xorazm viloyatida eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini kompleks tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

ESFII dinamikasi institutsional tizim samaradorligini bevosita aks ettiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2010-2016-yillarda ESFII qiymatining pasayishi (0,329 dan 0,195 gacha) bu davrda institutsional tizimning zaifligini ko'rsatadi. 2017-yildan boshlab ESFII qiymatining barqaror o'sishi (2024-yilda 0,836) institutsional islohotlar, ya'ni valyuta bozorining liberallashtirilishi, "O'zbekekspertiza" agentligining qayta tashkil etilishi va raqamli platformalarning joriy etilishi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

ARDL model natijalari institutsional tizimni takomillashtirish uchun muhim ko'rsatmalar beradi. ESFII qiymatining YaHM ga qisqa muddatda salbiy (-0,093), uzoq muddatda ijobiy (0,626) ta'siri shuni anglatadiki, institutsional o'zgarishlar dastlab qo'shimcha xarajatlar va moslashuv qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, uzoq muddatda sezilarli ijobiy natija beradi. ECT koeffitsienti (-0,0494) viloyat iqtisodiyotining institutsional o'zgarishlarga to'liq moslashishi uchun taxminan 11 yil vaqt talab qilishini ko'rsatadi.

Eksport tarkibidagi transformatsiya tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyati eksporti monoeksport modelidan diversifikatsiyalashgan tuzilmaga o'tdi. 2010-yilda viloyat eksportining 83,8 foizini paxta tolasi tashkil etgan bo'lsa-da, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich 0 foizga tushdi. Bu o'zgarish O'zbekiston Respublikasining paxta tolasi eksportini bosqichma-bosqich cheklash va qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o'tish siyosatining bevosita natijasidir.

Tadqiqotda mintaqa eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning ekstensiv modeldan (hajm ustuvorligi) intensiv modelga (sifat ustuvorligi) o'tishga asoslangan quyidagi to'rtta strategik yo'nalishi taklif etildi:

S₁ - yuqori qo'shilgan qiymatga o'tish: xomashyo eksportidan qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga o'tish. Bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, sovuq zanjir infratuzilmasini yaratish va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar assortimentini kengaytirish nazarda tutiladi.

S₂ - eksport intensivligini oshirish: Bu uning hajmini emas, ya'ni eksportdan olinadigan real daromad va qo'shilgan qiymatni oshirishga qaratilgan. Unga asosan, xizmatlar ulushi 2,5 foizdan 13,6 foizga o'sganligi ijobiy tendensiya bo'lib, transport-logistika, turizm va IT xizmatlari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim.


S₃ - sanoat va xizmatlarni tashqi bozorlarga moslashtirish: viloyatda mavjud sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirish, yangi eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishlarni tashkil etish. Unga asosan, sanoat mahsuloti hajmining 45,2 baravarga, xizmatlar hajmining 33,3 baravarga o'sishi ESFII ko'rsatkichining 0,329

dan 0,836 ga yetishida hal qiluvchi omil bo'lganligi aniqlangan.

S₄ - eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish: MDH davlatlari (52,7 foiz) va Osiyo mamlakatlari (44,5 foiz) qisqa muddatli tayanch sifatida saqlab qolgan holda Yevropa va Amerika bozorlariga bosqichma-bosqich chiqish nazarda tutiladi.

Taklif etilgan ushbu to'rtta strategik yo'nalishning zaruriyati dissertatsiyada olingan ekonometrik natijalar bilan bevosita asoslanadi. ARDL (3,4,1,1,1) modelining uzoq muddatli tenglamasida sanoat ko'rsatkichining koeffitsienti (0,911) barcha o'zgaruvchilar orasida eng yuqori qiymatga ega bo'lganligi S₃ yo'nalishining, ya'ni sanoat va xizmatlarni tashqi bozorlarga moslashtirishning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ESFII qiymatining uzoq muddatli koeffitsienti (0,626) eksport salohiyatidan foydalanish sifatining YaHMga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Bu esa S₁ va S₂ yo'nalishlari, ya'ni qo'shilgan qiymatni oshirish va eksport intensivligini kuchaytirishning uzoq muddatli iqtisodiy asosini tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm. Xorazm viloyati eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning tarmoq va mahsulot tarkibiy strategiyalarini shakllantirish sxemasi¹³

¹³ Tahlil natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Har bir strategik yo‘nalishning haqiqiy ta’siri ESFII tarkibiy ko‘rsatkichlari dinamikasida aniq namoyon bo‘lgan. S_1 yo‘nalishi bo‘yicha QQU normalizatsiya qilingan qiymati 2010-yildagi 0,000 dan 2024-yilda 1,000 ga yetdi. Bu esa paxta tolasiga asoslangan xomashyo eksportidan qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga to‘liq o‘tish amalga oshganini ko‘rsatadi. S_2 yo‘nalishi bo‘yicha ESK normalizatsiya qilingan qiymati 0,643 dan 1,000 ga oshdi, xizmatlar ulushi esa 2,5 foizdan 13,6 foizga yetdi, ya’ni eksport intensivligi sezilarli kuchaygan. S_3 yo‘nalishi bo‘yicha sanoat mahsuloti hajmining 45,2 baravarga va xizmatlar hajmining 33,3 baravarga o‘ssishi ESFII qiymatining 0,329 dan 0,836 ga ko‘tarilishida hal qiluvchi omil bo‘lganligi aniqlandi. S_4 yo‘nalishi bo‘yicha esa geografik diversifikatsiya indeksi (GEO) 2024-yilda 0,524 ni tashkil etdi. Ammo, eksportning 97,2 foizi atigi ikkita mintaqaga (MDH va Osiyo) to‘g‘ri kelishi konsentratsiya xavfining saqlanayotganini va ushbu yo‘nalishda zaxiralarning katta ekanini anglatadi.

Strategik yo‘nalishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shundan iboratki, S_1 (qo‘shilgan qiymatni oshirish) S_2 ning (eksport intensivligi) zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, qayta ishlangan mahsulotlar eksportisiz real daromadni oshirish imkoni cheklangan. O‘z navbatida S_3 (sanoat va xizmatlarni moslashtirish) S_1 va S_2 ni ishlab chiqarish bazasi bilan ta’minlaydi. S_4 (geografik diversifikatsiya) esa avvalgi uch yo‘nalish natijasida yaratilgan raqobatbardosh mahsulotlar portfelini yangi bozorlar orqali realizatsiya qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu to‘rtta yo‘nalish ketma-ket va o‘zaro shartlashgan tizimni tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqotda mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning quyidagi uch blokli kompleks modeli ham taklif etildi:

Birinchi blok - kirish parametrlari (Input Variables): asosiy kapitalga investitsiyalar (INV), sanoat mahsuloti hajmi (IND), xizmatlar hajmi (SRV), eksportyor korxonalarida bandlik (EMP) va eksportyor korxonalar soni (KORX).

Ikkinchi blok - hisoblanadigan parametrlar (Calculated Variables): tarmoq diversifikatsiyasi indeksi ($DIV = 1 - HHI$), geografik diversifikatsiya indeksi (GEO) va tashqi savdo balansi indeksi ($TSBI = EX/(EX+IM)$).

Uchinchi blok - natija parametrlari (Output Variables): eksport salohiyatidan foydalanish integral indeksi (ESFII) va eksport hajmi (EX).

Kompleks modelning ilmiy asosini quyidagi tenglamalar tizimi tashkil etadi:

$$ESFII_t = \alpha_0 + \alpha_1 \ln(INV_t) + \alpha_2 \ln(IND_t) + \alpha_3 \ln(EMP_t) + \alpha_4 \ln(SRV_t) + \varepsilon_t \quad (5)$$

$$\ln(EX_t) = \beta_0 + \beta_1 \cdot ESFII_t + \beta_2 \ln(IND_t) + \beta_3 \ln(SRV_t) + \mu_t \quad (6)$$

ESFII ko‘rsatkichining prognozini amalga oshirishda logit transformatsiyasi qo‘llanildi. Prognozashtirish uchun ARIMA, Holt eksponensial tekislash va uchta polinomial trend modeli sinab ko‘rildi. Tahlil natijalari bo‘yicha kvadratik trend modeli eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi ($R^2 = 0,936$ va $AIC = 4,53$).

Modelning regression natijalari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

$$\logit(ESFII_t) = -0,381 - 0,322 \cdot t + 0,030 \cdot t^2 \quad (6)$$

Kvadratik trend modeli asosida 2026-2030-yillarga uchta rivojlanish senariysi ishlab chiqildi (6-jadval).

2026-2030-yillarda ESFII qiymatining senariylar bo'yicha prognoz qiymatlari¹⁴

Yillar	Pessimistik	Bazaviy	Optimistik
2026	0,797	0,938	0,979
2027	0,808	0,969	0,993
2028	0,807	0,985	0,998
2029	0,796	0,994	0,999
2030	0,776	0,997	1,000

Bazaviy senariyning amalga oshishi uchun sanoat mahsuloti hajmining yillik o'rtacha 10-12 foiz sur'atda o'sishi va eksportyor korxonalar sonining 500-550 taga yetishi va eksport sektorida bandlikning 15000-18000 nafar kishiga yetishi lozim.

Kompleks modelning ishonchliligini ta'minlash maqsadida prognozlashtirish usulini tanlashda muqobil modellar qiyosiy sinovdan o'tkazildi. ARIMA, Holt eksponensial tekislash va uchta polynomial trend modeli solishtirilib, kvadratik trend modeli $R^2 = 0,936$ va $AIC = 4,53$ qiymatlari bilan eng yuqori moslanish darajasini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, ARDL (3,4,1,1,1) modelining asosiy diagnostik testlari ham modelning statistik ishonchliligini tasdiqlaydi. Unga asosan, Pesaran bounds testi ($F = 4,376$) o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli kointegratsiya munosabati mavjudligini isbotlagan, Ramsey RESET testi ($p = 0,864$) model spetsifikatsiyasining to'g'riligini, Breusch-Godfrey testi ($p = 0,611$) qoldiq hadlarda avtokorrelyatsiya yo'qligini hamda CUSUM testi parametrlarning barqarorligini ko'rsatadi. Mazkur diagnostik natijalar birgalikda modeldan olingan koeffitsientlar va prognoz qiymatlarining statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Uchta senariy o'rtasidagi farq kirish parametrlarining turlicha rivojlanish sur'atlariga asoslandi. Bazaviy senariyda sanoat mahsuloti yillik 10-12 foiz sur'atda o'sishi, eksportyor korxonalar soni 500-550 taga yetishi va bandlikning 15000-18000 nafar kishiga ko'tarilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, pessimistik senariy ushbu ko'rsatkichlarning sekinroq rivojlanishini (o'sish sur'ati 4 foiz, bandlik 14000 nafar kishi va eksport hajmi 588 mln. dollar) ko'zda tutadi.

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, pessimistik senariyda ESFII 2027-yilda 0,808 ga yetganidan so'ng pasayishga o'tishi (2030-yilda 0,776) kutilmoqda. Bu esa institutsional islohotlar susaygan sharoitda eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligining orqaga qaytish xavfi mavjudligini anglatadi. Optimistik senariy esa barcha kirish parametrlarining jadal o'sishi (yillik 12 foiz, bandlik 20000 nafar kishi va eksport hajmi 750 mln. dollar) sharoitida ESFII qiymatining 2030-yilga kelib, nazariy maksimumiga (1,000) yetishi mumkinligini ko'rsatadi.

Modelning retrospektiv muvofiqligini tekshirish maqsadida kvadratik trend tenglamasining 2010-2024-yillar uchun hisoblangan qiymatlari ESFII qiymatining haqiqiy qiymatlari bilan taqqoslandi. Model o'sha davrdagi uch bosqichli dinamikani dastlabki o'rtacha daraja (2010-2011-yy.), pasayish davri (2012-2017-yy.) va barqaror o'sish bosqichi (2018-2024-yy.) muvaffaqiyatli aks ettiradi. Bu esa

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

$R^2=0,936$ ning yuqori moslanish ko'rsatkichi bilan tasdiqlandi. Shu sababli, modelning istiqbolga mo'ljallangan prognoz qiymatlari yetarli darajada ishonchli empirik asosga ega, deb baholandi.

Kompleks modelni amalga oshirish uch bosqichli yo'l xaritasi ishlab chiqildi (7-jadval).

7-jadval

2025-2030-yillarda kompleks modelni amalga oshirishning "yo'l xaritasi"¹⁵

Bosqich	Yillar	Asosiy vazifalar	ESFII / Eksport	Moliyalashtirish
Tayyorgarlik	2025	Institutsional tuzilmani shakllantirish	0,887 / 500 mln. \$	15-20 mlrd. so'm
Faol rivojlanish	2026-2028	Klasterlar, infratuzilma va yangi bozorlar	0,985 / 650 mln. \$	75-105 mlrd. so'm
Barqarorlashtirish	2029-2030	Optimallashtirish va mustahkamlash	0,997 / 750 mln. \$	40-50 mlrd. so'm

Unga asosan, moliyalashtirish manbalari taqsimoti davlat byudjeti 40 %ni, viloyat byudjeti 20 %ni, xususiy sektor investitsiyalari 30 %ni va xalqaro donor tashkilotlari 10 %ni tashkil etadi. Ushbu kompleks modelni to'liq amalga oshirish natijasida 2030-yilga kelib, quyidagi natijalarga erishish ham prognoz qilindi (8-jadval).

8-jadval

Bazaviy senariy bo'yicha 2030-yildagi kutilayotgan natijalar haqida ma'lumot¹⁶

№	Ko'rsatkichlar	2024-y. (haqiqiy)	2030-y. (prognoz)	O'sish
1	ESFII	0,836	0,997	19,3 %
2	Eksport hajmi, mln. \$	427,5	700-750	1,6-1,8 marta
3	Eksportyor korxonalar soni, dona	395	600	1,5 marta
4	Bandlik, nafar kishi	10965	18000-20000	1,6-1,8 marta
5	Geografik diversifikatsiya	0,524	0,65	24 %
6	Tarmoq diversifikatsiya	0,368	0,62	68 %
7	Qo'shilgan qiymat ulushi, %	44	60	16 p.p.

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish natijasida Xorazm viloyatida sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy samaralarga erishish prognoz qilinmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, eksport salohiyatidan samarali foydalanishning intensiv modelga asoslangan strategik yo'nalishlari joriy etilishi natijasida qo'shimcha eksport tushumlari hajmi 270-320 mln. AQSh dollariga oshishi kutilmoqda. Bu esa mintaqaning tashqi savdo aylanmasini kengaytirish, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, eksport faoliyatining kengayishi natijasida 7000-9000 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi prognoz qilinmoqda. Bu esa mintaqada mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Eksport tarkibining yuqori

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi hisobiga kengayishi natijasida yalpi qo'shilgan qiymat hajmi 25-30 foizga oshishi kutilmoqda.

Ijtimoiy jihatdan esa eksport sektorining rivojlanishi aholi farovonligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Prognozlarga ko'ra, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda o'rtacha ish haqi darajasi 30-40 foizga oshishi mumkin. Bu esa yuqori mehnat unumdorligi va sifatli ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, eksport sektorining barqaror rivojlanishi malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni talab etadi va natijada har yili 200-250 nafar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabi eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda xotin-qizlar bandligining oshishi kutilmoqda. Mazkur iqtisodiy va ijtimoiy samaralar eksport salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarning mintaqaviy rivojlanishga kompleks ta'sirini tasdiqlaydi.

XULOSA

1. Mintaqaviy barqaror rivojlanishning nazariy asoslari neoklassik (R.Solou), endogen (P.Romer), yangi iqtisodiy geografiya (P.Krugman), institutsional (D.Nort) va klaster (M.Porter) nazariyalari asosida tizimlashtirilgan. Xorazm viloyati sharoitida ushbu nazariyalarning mintaqaviy eksport salohiyatini tahlil qilish va rivojlantirish uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi asoslangan.

2. Mintaqaviy rivojlanish omillarining besh mezonli tasnifi takomillashtirilib, Xorazm viloyatida rag'batlantiruvchi (investitsiyalar - YaHMning 30,5 % va mehnat resurslari - 1,08 mln. nafar kishi) hamda cheklovchi (suv tanqisligi va dengizga chiqish yo'qligi) omillar o'rtasidagi to'rt darajali sinergik mexanizm aniqlangan. Vertikal ta'sir zanjiri 2017-yildagi valyuta liberalizatsiyasi natijasida eksportyor korxonalar sonining 155 tadan 395 taga o'sishi misolida empirik tasdiqlangan.

3. Rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va Vyetnam) tajribalari tahlili asosida Xorazm viloyatiga moslashtirilgan oltita integratsiyalashgan mexanizm (institutsional tizim, klaster yondashuvi, erkin iqtisodiy zona, kadrlar tayyorlash, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va xorijiy investitsiyalar) ishlab chiqilgan.

4. 2010-2024-yillarda Xorazm viloyatida eksport hajmi 2,7 baravarga, eksportyor korxonalar soni 7,3 baravarga va bandlik 9,5 baravarga o'sganligi aniqlangan. Paxta tolasi ulushining 83,8 foizdan nolga tushishi monoeksportdan diversifikatsiyalashgan modelga o'tilganini tasdiqlagan, ammo tashqi savdo defitsiti va eksport geografiasining MDH (52,7 %) va Osiyo (44,5 %) hududlariga konsentratsiyalashganligi tizimli muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

5. Eksport salohiyatidan foydalanish darajasini beshta ko'rsatkich (ESK, EQK, QQU, EKS va EXB) asosida baholash imkonini beruvchi ESFII integral indeksi va uning uch darajali izohlash mezonlari (0-0,3 - past, 0,3-0,5 - o'rtacha va 0,5-1,0 - yuqori) asoslangan. ESFII qiymatining 0,329 dan 0,836 gacha o'sishi eksport samaradorligining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatgan. Biroq, EQK ning 0,178 da qolganligi tashqi savdo balansini yaxshilash asosiy zaxira ekanini aniqlagan.

6. ARDL (3,4,1,1,1) - ECM modeli sanoat elastikligining (0,911) YaHM shakllanishidagi dominant rolini va ESFI qiyamatining qisqa muddatda salbiy (-0,093), uzoq muddatda ijobiy (0,626) ta'sirini aniqlagan. ECT koeffitsienti (-0,0494) viloyat iqtisodiyotining tashqi shoklarga to'liq moslashishi uchun taxminan 11 yil talab qilishini ko'rsatib, eksport siyosatining uzoq muddatli bo'lishi zarurligini tasdiqlagan.

7. D.Nort institutsional nazariyasiga asoslangan holda eksport institutlarining to'rt guruhli tasnifi va uch darajali boshqaruv tizimi (viloyat eksport kengashi - ERA - ijro) taklif etilgan. Eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun eksport kreditlari, faktoring xizmatlari va 20 mlrd. so'mlik Eksport kafolatlari fondi mexanizmlari asoslangan.

8. Ekstensiv modeldan intensiv modelga o'tishga asoslangan to'rtta strategik yo'nalish taklif etilgan. Ya'ni, S_1 va S_2 ESFI qiyamatining uzoq muddatli koeffitsienti (0,626), S_3 sanoat elastikligi (0,911) va S_4 esa eksportning 97,2 foizining ikkita mintaqaga konsentratsiyalashganligi ($GEO = 0,524$) bilan ekonometrik jihatdan asoslangan.

9. Uch blokli (kirish, hisoblash va natija) kompleks model va kvadratik trend modeli ($R^2 = 0,936$) asosida 2026-2030-yillarga prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Bazaviy senariyda ESFI ni 0,938 dan 0,997 gacha, eksport hajmini 550 dan 750 mln. dollargacha uch bosqichli "yo'l xaritasi" va 130-175 mlrd. so'mlik moliyalashtirish rejasi asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПОД
НОМЕРОМ DSc.03/2025.27.12.I.06.04 ПРИ УРГЕНЧСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА
БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

Якубов Санъат Шоназарович

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА
В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНА
(на примере Хорезмской области)**

08.00.12 – «Региональная экономика»

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ургенч – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2026.1.PhD/Iqt6629.

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Хамраев Кувват Искандарович**
доктор философии по экономике, доцент

Официальные оппоненты: **Муллабаев Бахтиярджон Бултурбаевич**
доктор экономических наук, профессор
Сапаев Максудбек Каримович
доктор философии по экономике, PhD

Ведущая организация: **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____:_____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.06.04 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамид Олимжон, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (зарегистрирована за № _____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамид Олимжон, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.

(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2026 года).

И. С. Абдуллаев

Председатель диссертационного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук, профессор

Т. Ж. Рахимов

Ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор экономических наук,
доцент

Б. Рузметов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации устойчивое развитие региональных экономик в мире напрямую зависит от уровня эффективного использования их экспортного потенциала. В 2023 году мировой объем экспорта товаров составил 24,9 трлн долларов США, а экспорт услуг — 7,1 трлн долларов США¹⁷. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость использования широких возможностей международного рынка для научно обоснованного формирования экспортной стратегии регионов с целью занятия достойного места на глобальном рынке. В связи с этим актуальное значение приобретает переоценка экспортных возможностей регионов, обладающих уникальным географическим положением, ресурсным потенциалом и культурно-историческим наследием.

В регионах стран мира применяются различные модели эффективного использования экспортного потенциала. Модель «Mittelstand» Германии, экспортно-ориентированная промышленная политика Южной Кореи, опыт специальных экономических зон Китая, а также методы модернизации традиционных отраслей в Турции имеют важное научно-практическое значение для развития регионального экспортного потенциала. Основными направлениями научных исследований в данной сфере являются оценка влияния экспорта на региональный экономический рост, диверсификация структуры экспорта, разработка интегрального индекса использования экспортного потенциала (ESFII), а также расчет краткосрочных и долгосрочных мультипликаторов экспорта посредством применения подходов ARDL-ECM.

В Стратегии развития Нового Узбекистана особое внимание уделено эффективному использованию экспортного потенциала регионов и обеспечению устойчивого развития. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № PF-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» стратегической целью определено доведение объема экспорта республики к 2026 году до 30 млрд долларов США¹⁸. Также в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии “Узбекистан–2030”» определены долгосрочные перспективы политики регионального развития¹⁹. В данных стратегических документах особое внимание уделено развитию Хорезмской области, повышению ее экспортного потенциала и углублению международной экономической интеграции.

Настоящее исследование в определенной степени способствует реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № PF-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах», Указе Президента Республики Узбекистан № PF-60 от 28 января 2022 года «О

¹⁷ https://unctad.org/system/files/official-document/ditctab2024d1_en.pdf

¹⁸ Указ Президента Республики Узбекистан № PF-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹⁹ Указ Президента Республики Узбекистан № PF-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии Узбекистана-2030». <https://web.archive.org/web/20250501045257/https://lex.uz/ru/docs/-6600390>

Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан № RF-97 от 6 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по поддержке участников внешнеторговой деятельности», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 283 от 14 мая 2020 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию мониторинга внешнеторговых операций в Республике Узбекистан», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 154 от 4 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Хорезмской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022–2026 годах» и других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Эконометрические модели эффективного использования экспорта в повышении конкурентоспособности региональной экономики широко исследованы в научных работах зарубежных ученых, таких как Д. Астериу, Стивен Г. Холл, Х. Ху, Д. Т. Нгиа, Н. Х. Нам, М. В. Л. Чан, К. Хоу, С. Ли, Д. С. Маунтейн, М. Фальк, Г. Н. Яннаопулос, М. Бломстрём, А. Кокко, М. Гетцнер, С. Мороз, Г. Савою, С. Попа, М. Ляйбрехт и А. Ридль²⁰.

Исследования, посвященные изучению эконометрических моделей развития экспорта и его реализации в целях повышения конкурентоспособности региональной экономики, в странах СНГ были проведены такими учеными, как Ю.Л. Андреева, Ю.В. Малышева, А.Б. Дажигова, И.А. Карачев, О.Р. Нодиров, М.А. Убайдуллаев, Е.П. Алексеева, Р.М. Притыков, Г.И. Немирова, Д.Г. Сухих, В.М. Кась, А.О. Тихомиров, Е.А. Тишкина, О.А. Шестакова, Н.О. Якушев и другими²¹.

